



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. O'zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzi oshib, faol muloqot vositasiga aylanib bormoqda. Bugun turli darajadagi rasmiy uchrashuv va muzokaralarda tilimiz keng qo'llanmoqda. Xorijdagi qator ta'lim dargohlari va ilmiy markazlarda o'zbek tili bo'limlari ochilib, ularda ona tilimizni o'rganishga qiziquvchilar soni tobora ortib bormoqda.

O'ziga xos, boy, jozibador, sermazmun ona tilimiz Davlat tili maqomini olgach, unga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Ayniqsa, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbusi bilan 21-oktabrning "O'zbek tili bayrami" sifatida nishonlanishi tilimizning huquqiy maqomini mustahkamlash bilan birga, xalqimiz qalbida unga bo'lgan ehtiromni yanada oshirdi.

Yana bir tarixiy voqea – Hurmatli Prezidentimizning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ilk bor o'zbek tilida nutq so'zlaganidir. O'zbek tilini butun dunyo tingladi. Bu nafaqat davlatimiz, balki millatimizning toji va eng oliy nishoni bo'lgan ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obro'sini yanada yuksaltirdi.

Biroq yutuqlar bilan birga, muammolar ham bor. Qonun bor, ammo unga to'liq amal qilinmayapti. Yutuqlar bizniki, lekin javobgarlikni kuchaytirish – kun tartibidagi asosiy masala. Chunki tilni faqat targ'ib qilish emas, balki uning qonuniy maqomini himoya qilish ham zarur. Aks holda, erishilgan yutuqlar barqaror bo'lmaydi

Men ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganib chiqdim.

Masalan, Rossiya Federatsiyasining "Davlat tili to'g'risida"gi Federal qonunining 3-moddasida nafaqat davlat tashkilotlari, balki mulkchilik shaklidan qat'i nazar, Rossiya hududida faoliyat yurituvchi barcha tashkilotlar ish yuritishda rus tilidan foydalanishi shartligi belgilangan. Qonunni buzganlik uchun esa javobgarlik ko'zda tutilgan. Bu mamlakatda 190 dan ortiq millat yashashiga qaramay, yagona davlat tilining ustuvorligi qat'iy ta'minlanmoqda.

Gruziyada qabul qilingan "Davlat tili haqida"gi Qonunga ko'ra, barcha davlat tashkilotlarida ish yuritish faqat davlat tili – gruzin tilida amalga oshiriladi. Hujjatlar boshqa tillarga tarjima qilinishi mumkin, biroq bunday tarjimalar rasmiy hujjat kuchiga ega emas. Bu yondashuv davlat tilining boshqaruv va hujjatchilikda yagona asosiy vosita bo'lib xizmat qilishini kafolatlaydi.

Germaniyada "Ma'muriy amaliyotlar to'g'risida"gi Qonunning 23-paragrafida rasmiy til sifatida nemis tili mustahkamlangan. Davlat idoralari boshqa tildagi murojaatlarni qabul qilmaydi va darhol murojaatchidan nemischa tarjimini taqdim etishni talab qiladi. Bu tartib davlat boshqaruvida intizomni saqlash va yagona rasmiy tilning ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Polsha Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunida ham davlat boshqaruvi va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarida ish yuritish faqat davlat tili – polyak tilida olib borilishi qat'iy belgilangan. Bu huquqiy qoida davlat tilining

maqomini mustahkamlash bilan birga milliy birlikni ta'minlashga ham xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, Fransiya tajribasi e'tiborga molik. Yevropaning eng ko'p tilli mamlakati hisoblangan Fransiya aholisi 51 foizi fransuz tilidan boshqa tilda so'zlashadi. Biroq Konstitutsiyada faqat fransuz tili davlat tili sifatida belgilangan. 1994-yilda qabul qilingan "Tubon" qonuniga ko'ra, reklama matnlari, joy nomlari, ommaviy joylardagi peshlavhalar, jamoat transportidagi yozuvlar, yo'l ko'rsatkichlari, mahsulot yorliqlari faqat fransuz tilida bo'lishi shart. Hatto chet so'zlardan foydalanish ham qat'iy nazorat ostida. Shu qonunni buzganlik uchun jismoniy shaxslarga 700 yevro, yuridik shaxslarga esa 3750 yevrogacha jarima solinadi. Ayrim hollarda mulk musodara qilinishi yoki shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi ham mumkin.

Fransiyada nafaqat sud va politsiya, balki iste'molchilar huquqini himoya qiluvchi organlar ham til qonunchiligi ijrosini nazorat qiladi. Fransuz Akademiyasi esa har yili fransuz tiliga kiritiladigan yangi so'zlar ro'yxatini e'lon qilib, til monitoringini olib boradi. Bugun fransuzlar nutqda ortiqcha chet so'z ishlatishni madaniyatsizlik deb hisoblaydilar.

Xo'sh, bizda-chi? "Davlat tili haqida"gi Qonun mavjud bo'lsa-da, unga rioya qilmaganlik uchun javobgarlik mexanizmi yo'q, nazorat tizimi ham mukammal emas. Aksincha, til borasidagi har bir tashabbus ko'pincha siyosiy lashtirilib, millatlararo muhokama maydoniga aylanmoqda. Aslida bizning maqsadimiz oddiy – qonunni ishlatish, davlat tilining huquqiy maqomini amalda mustahkamlashdir.

Bugungi dunyo tajribasi ko'rsatadiki, Rossiyadan tortib Fransiya-gacha, Germaniyadan Polshagacha bo'lgan ko'plab mamlakatlarda davlat tili masalasi qat'iy huquqiy asosda tartibga solingan, unga rioya qilmagan shaxs va tashkilotlarga esa jiddiy choralar qo'llaniladi. Shu qat'iyat tufayli ular o'z tillarini asrab, yanada rivojlantirishga erishmoqda.

Ustoz Abdulla Qahhor ta'kidlaganidek, ko'cha qoidalarini buzgan odam jazoga tortiladi, biroq til qoidalarini buzganlarga "hushtak chaladigan" tartib mavjud emas. Bu so'zlar ortida katta hayotiy haqiqat mujassam. Chunki ko'cha harakati – inson hayotini muhofaza qilsa, til qoidalariga amal qilish – millatning hayotini, ma'naviy umrini asraydi. Zero, til – millatning yuragi, uning qon tomiri, ruhiy asosi. Tilni yo'qotish – millatni yo'qotish bilan barobar.

Shu bois Abdulla Avloniy aytgan "til – millatning oyinai hayoti" degan hikmat bugungi kunda yanada dolzarbroq jaranglaydi. Har bir xalqning borligi, obro' - e'tibori, jahon hamjamiyatidagi mavqeini avvalo uning tili va adabiyoti belgilaydi. Agar til sofligi saqlanmasa, undagi ma'naviy boyliklar asta-sekin yo'qolib, millat o'z ildizidan uzilib qoladi.

Til – bu nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning tafakkuri, dunyoqarashi, qadriyatlari, orzu-intilishlari mujassam bo‘lgan bebaho xazina. Shu sababdan ham uni asrash, rivojlantirish, avloddan-avlodga yetkazish har bir fuqaroning burchi va mas’uliyati hisoblanadi. Davlat qonunlari esa bu jarayonga huquqiy asos va kafolat bo‘lib xizmat qilishi lozim. Qonun bor, lekin unga rioya qilinmasa – u qog‘ozda qolib ketadi. Shu bois “Davlat tili haqida”gi Qonunning amalda to‘laqonli ishlashi, unga zid harakatlar uchun javobgarlikning belgilanishi va samarali nazorat mexanizmlarining joriy qilinishi bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir.

Globalizatsiya jarayonida ko‘plab milliy tillar o‘z mavqeini yo‘qotib borayotgani kuzatilmoqda. YUNESKO ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda mavjud bo‘lgan 7 mingdan ortiq tillarning yarmidan ko‘pi xavf ostida turibdi. Bu jarayon milliy tillarning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi va huquqiy himoyasini kuchaytirishni taqozo etmoqda. O‘zbek tili ham dunyodagi yirik tillardan biri sifatida xalqaro maydonda o‘z o‘rnini mustahkamlashi uchun qonuniy asoslar bilan bir qatorda, zamonaviy lingvistik texnologiyalar – elektron lug‘atlar, avtomatik tarjima dasturlari, o‘zbek tilida ishlovchi sun’iy intellekt tizimlari yaratish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda davlat tilini rivojlantirishda quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish lozim:

1. **Ta’lim tizimida** – barcha bosqichlarda davlat tilida darslik va o‘quv qo‘llanmalarini takomillashtirish, til madaniyatini chuqurlashtirish.

2. **Rasmiy hujjatchilikda** – davlat tilida ish yuritishning yagona standartlarini ishlab chiqish va qat’iy amal qilish.

3. **OAV va internet makonida** – til me’yorlariga rioya etilishini nazorat qilish, adabiy til asosida sifatli kontent yaratishni rag‘batlantirish.

4. **Ilm-fan va texnologiyada** – o‘zbek tilining ilmiy-texnik sohalarda keng qo‘llanishini ta’minlash, yangi atamalarni milliy til asosida ishlab chiqish.

5. **Xalqaro maydonda** – o‘zbek tilini xorijiy oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish, xalqaro nashrlarda targ‘ib etish va tilshunoslik tadqiqotlarini kengaytirish.

O‘zbek tilining davlat tili sifatida e’tirof etilishi faqat qonuniy talab emas, balki xalqimizning milliy g‘ururi, ma’naviy merosiga bo‘lgan hurmatidir. Buyuk mutafakkirlarimiz – Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon kabi allomalar asarlarida o‘zbek tilining qudrati, badiiy go‘zalligi, ma’naviy chuqurligi yaqqol namoyon bo‘lgan.

Ona tilini asrash, rivojlantirish va avlodlarga yetkazish – har bir fuqaroning burchi. Biroq bundan ham muhim jihat shundaki, tilga faqat majburiyat sifatida emas, balki milliy g‘urur, ma’naviy ehtiyoj sifatida qarash lozim. Tilni qadrlashni qonun talab qilgani uchun emas, qalbimiz buyurgani uchun qilishimiz kerak. Ona tilida so‘zlashish – bu shunchaki odat emas, balki milliy o‘zlikni namoyon etish, ajdodlarga

hurmat ko'rsatish, farzandlarimiz kelajagiga yo'l ochishdir. Tilini yo'qotgan millat tarix sahnasidan yo'qoladi, tilini asragan xalq esa o'zligini, g'ururini va mustaqilligini asrab, abadiyat sari intiladi.

Tilga e'tibor – millatga e'tibor, tilga beparvolik – millatga beparvolikdir. Davlat tilini qonuniy himoya qilish bilan birga, unga amaliy hayotda to'liq amal qilish, til madaniyatini oshirish, uni zamonaviy texnologiyalar orqali global maydonga olib chiqish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Shu yo'l bilangina o'zbek tili nafaqat milliy qadriyat, balki jahon ilm-fan va madaniyatida ham munosib o'rin egallashiga erishamiz.

Shunday ekan, bugungi avlod zimmasida ulkan mas'uliyat yotadi: ona tilining ertangi kuni, millatning taqdiri, ma'naviyatimizning abadiyligi bevosita bizning qo'limizda. Tilni asrash – bu tarixga hurmat, bugunga mas'uliyat, kelajakka esa eng katta sarmoyadir. Ona tilini ulug'lash – millatni ulug'lash, o'zligimizni asrash, abadiyat sari intilish demakdir. Chunki tilni yo'qotgan millat tarix sahnasidan ham yo'qoladi, tilini asragan xalq esa ming yillar davomida o'zligini, g'ururini va mustaqilligini saqlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023). O'zbekiston.

Davlat tili haqida”gi Qonun. (2019). Adolat.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. (2022). Adolat.

Mirziyoyev Sh.M. (2019). O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.

Mirziyoyev Sh.M. (2017). *“illiy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.* Toshkent: O'zbekiston.

Avloniy A. (1992). *Turkiy guliston yoxud axloq.* Toshkent: Ma'naviyat.

Qahhor A. (2001). *Asarlar. 5-jild.* G'afur G'ulom.

Qodirov P. (2010). *Til va el.* Ma'naviyat.

Internet saytlari: www.ziynet.uz, www.lex.uz, www.kh-davron.uz.

AMALIY SUD LINGVISTIKASI: METODLAR VA PRINSIPLAR

Aziza MAHAMMATOVA*

Annotatsiya

Amaliy tilshunoslik zamonaviy lingvistikaning muhim sohasi bo'lib, xorijiy til o'qitish, nutq madaniyati, gender lingvistikasi, psixolingvistika, kompyuter lingvistikasi va tijorat lingvistikasini qamrab oladi. Shu bilan birga, sud lingvistikasi yuridik diskursni tahlil qilish, matn va nutqni ekspertiza qilish orqali huquqiy amaliyotga bevosita xizmat qiladi. Fonoskopik ekspertiza, lingvistik ekspertiza va mualliflikni aniqlash ekspertizasi kabi turlari mavjud. Ushbu soha ekstremizm, terrorizm, korrupsiya va jinoyatlarni isbotlashda lingvistik metodlarni qo'llashni taqozo etadi. Sud lingvistikasi yuridik va gumanitar fanlar kesishmasida shakllanib, jamiyatda huquqiy adolatni ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: amaliy tilshunoslik, sud lingvistikasi, lingvistik ekspertiza, fonoskopik ekspertiza, mualliflikni aniqlash, huquqiy diskurs, psixolingvistika, kompyuter lingvistikasi, ekstremizm va terrorizm, huquqiy adolat

Applied Forensic Linguistics: Methods And Principles

Abstract

Applied linguistics plays a crucial role in modern language studies, encompassing areas such as foreign language teaching, speech culture, gender linguistics, psycholinguistics, computational and commercial linguistics. A particularly significant branch is forensic linguistics, which directly serves legal practice by analyzing legal discourse, texts, and speech. Its key areas include phonoscopic analysis, linguistic expertise, and authorship attribution. Forensic linguistics provides methods to investigate extremism, terrorism, corruption, and criminal activities through linguistic examination. Positioned at the intersection of law and humanities, this discipline ensures the reliability of legal processes and contributes significantly to safeguarding justice and social order.

Keywords: applied linguistics, forensic linguistics, linguistic expertise, phonoscopic expertise, authorship attribution, legal discourse, psycholinguistics, computational linguistics, extremism and terrorism, legal justice

Amaliy tilshunoslikning hayotiy ahamiyati haqida gap ketganda, bir nechta yo'nalishlar darhol yodga tushadi. Jumladan, xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatish, og'zaki va yozma nutq madaniyatini shakllantirish shular jumlasidandir. Biroq bu yo'nalishlar tilning amaliy qo'llanilishining kichik va nisbatan tor qismini tashkil etadi (Баранов, 2018, 22-bet).

* Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

Amaliy tilshunoslikning turli yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ular faning iqtisodiy samaradorligi va ijtimoiy ahamiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bunday yo‘nalishlarga gender lingvistikasi, tijorat lingvistikasi, psixolingvistika, kompyuter lingvistikasi va boshqalar kiradi. Ushbu sohalar bo‘yicha mamlakatimizda ham izchil ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq, shunday bir amaliy tilshunoslik sohasi borki, uning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati nihoyatda yuqori bo‘lishiga qaramay, bu borada hali ham monografik tadqiqotlar yetarlicha olib borilmayapti. Bu **sud lingvistikasi** yo‘nalishidir.

Sud lingvistikasi bo‘yicha yetuk mutaxassis A. S. Aleksandrovning fikricha: “Sud lingvistikasi — bu yuridik fan bo‘lib, u “sud huquqi” deb ataluvchi soha bilan bevosita bog‘liqdir.” Nega bu fan “sudga oid” deb ataladi? Chunki u sud diskursi va sud muloqotini o‘z predmeti sifatida o‘rganadi. Ayni shu diskurs huquqiy masalalarning markazida turadi. Aleksandrovning ta’kidlashicha, huquq bu matndir, va sud diskursi esa huquqning yagona mavjudlik shaklidir. Shunday qilib, sud lingvistikasi fanining nazariy asosini yuridik diskurs haqidagi ta’limot va huquq=matn g‘oyasi tashkil etadi.

Fanning ikkinchi asosiy komponenti esa lingvistikadir. Lingvistika yuridik-sud faktlariga mutlaqo yangi, lingvistik yondashuvni taklif etadi. Aynan chegaradosh va marginal hodisalarni o‘rganish ko‘pincha murakkab sud muammolarining yechimini beradi. Demak, sud lingvistikasi – bu postmodern bosqichda shakllanayotgan yuridik fanlardan biri bo‘lib, huquqshunoslik va boshqa fanlar bilan chegaradosh soha hisoblanadi. Bu yo‘nalish orqali huquqshunoslik zamonaviy gumanitar bilimlar kontekstiga integratsiyalashmoqda (Александров, 2003, 154-bet).

Sud lingvistikasi amaliyotida bir nechta asosiy ekspertiza turlaridan foydalaniladi:

1. Fonoskopik ekspertiza

Bu ekspertiza turida gapirayotgan shaxsni ovozi va nutqi asosida aniqlash maqsad qilinadi. Masalan, audioyozuvda gapirgan shaxs aynan tergovda gumon qilinayotgan shaxsga tegishlimi yoki yo‘qligi aniqlanadi. Fonoskopik ekspertizada fonogrammadagi so‘zma-so‘z mazmun, yozuv vositasi, montaj aralashuvi, nutq tabiiyligi yoki tayyorlanganligi, psixofiziologik holat va til bilish darajasi tahlil qilinadi. Muzokaralar, intervyular, sud muhokamalari yoki tezkor-qidiruv audioyozuvlari – bular fonoskopik tahlil obyektlaridir.

2. Lingvistik ekspertiza

Ushbu ekspertiza matnlarni va yozma nutqni o‘rganadi. Tahlil obyekti sifatida tovar belgilaridan tortib, ijtimoiy tarmoqlardagi memlar, gif-videolar, postlar, qo‘shiqlar va boshqa kreolizlashgan matnlar olinadi. Asosiy yo‘nalishlar quyidagilar: sha’ni va qadr-qimmatni himoya qilish, ekstremizm, terrorizm, tahdid, shantaj,